

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
instituti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabalarining “Ilmiy tafakkur sarchashmalari”
nomli ilmiy maqola va tarjimalar to‘plamiga**

TAQRIZ

Hozirgi kunda dunyo miqyosida jurnalistika nazariyasi va amaliyotida yangi rivojlanish jarayoni ro‘y bermoqda. Mazkur tendensiyalarni o‘rganish va tahlil qilish yosh jurnalistlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabalarining “Ilmiy tafakkur sarchashmalari” nomli ilmiy maqola va tarjimalar to‘plami nashr etilishi ayni sohadagi yosh tadqiqotchi talabalarning ilmiy salohiyatini namoyon etishda muhim qadamdir. To‘plam xalqaro jurnalistika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ilmiy-ijodiy faolligini oshirish, pirovardida, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish va sohada o‘z o‘rnini topishga xizmat qiladi.

To‘plamda talabalar tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar va jahon adabiyoti namunalaridan amalga oshirilgan tarjimalar jamlangan. To‘plamga kiritilgan maqolalar va tarjimalar xalqaro jurnalistika yo‘nalishining bugungi kundagi eng muhim va dolzarb masalalarini qamrab olgan. Jumladan, “O‘zbekistonda mediata’lim: mediavositalar va axborot xavfsizligining huquqiy aspekti”, “Zamonaviy jurnalistikada sun’iy intellektning o‘rni”, “Matnni nashrga tayyorlash madaniyati” kabi mavzular o‘z ifodasini topgan.

Maqolalarda talabalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, tahliliy materiallar va xulosalar berilgan. Tarjimalarda esa xorijiy nashrlarda chop etilgan, xalqaro jurnalistikaga oid muhim maqolalar o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu esa talabalarning xorijiy tillarni o‘rganish va tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

To‘plam talabalarning mustaqil ilmiy izlanish olib borish, ijodiy salohiyat, tahliliy fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini namoyon etadi. Turli

tillardan o'girilgan tarjimalar o'zbek tiliga sifatli va tushunarli tarzda amalga oshirilgan. To'plamdagi materiallar jurnalistika sohasida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqotchilar va amaliyotchi jurnalistlar uchun foydali manba bo'la oladi. Kitob muqovasiga tanlangan dizayn esa o'quvchining e'tiborini tortadi.

Shunga qaramay, ba'zi maqolalarda ilmiy uslubga rioya qilinmagani, ayrim o'rinlarda tahlil chuqur emasligi ham ko'zga tashlanadi. Ayni jihat to'plam mualliflarining hali 2-bosqichda tahsil olayotganini inobatga olsak, tabiiy hol. Bu esa kelgusida talaba do'stlarimizga ilmiy maqola yozish bo'yicha qo'shimcha maslahatlar berishimiz kerakligini yodga soladi. Qolaversa, tarjima uchun materiallar tanlash va uni nashrga tayyorlash borasida yosh mualliflarga darsdan tashqari bo'sh vaqtlarda ham filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim, mohir tarjimon Rustam Sharipovdan tajriba va mahoratlarini ko'proq o'rganib borish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, "Ilmiy tafakkur sarchashmalari" nomli ilmiy maqola va tarjimalar to'plami Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi Xalqaro jurnalistika yo'nalishi talabalarining muhim ilmiy yutug'idir. To'plam xalqaro jurnalistika sohasida bilim olayotgan talabalarning ilmiy faolligini oshirishga va ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish orqali to'plamning sifatini yanada oshirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi Xalqaro jurnalistika yo'nalishi talabalarining filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim, mohir tarjimon Rustam Sharipov rahbarligi va mas'ul muharrirligidagi "Ilmiy tafakkur sarchashmalari" nomli ilmiy maqola va tarjimalar to'plamini chop etishga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



Dilshod RO'ZIQULOV,

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti katta ofitseri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori